



O'ZBEK TILI KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Qurolova Shodiya

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

gmail: qurolovashodiya@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Zubaydova Nilufar Ne'matullayevna,

Azzamova Nigora

Annotasiya: Ushbu maqola o'zbek tilining rivoji, o'zgarishlari zamonaviy tilda qanday o'zgarishlar hamda zamonaviy so'zlar paydo bo'lishi va tilni qanday saqlash, shuningdek o'zbek tilidagi qadimiy so'zlar haqida.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, shevadagi so'zlar, o'zbek tilida ilmiy ishlar, o'zbek tili lotin alofosi.

Kirish

Bugungi kunda o'zbek tilining ahamiyati juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir davlat singari O'zbekiston Respublikasi ham o'zining davlat tiliga ega. Til to'g'risidagi qonun 1989-yil 21-oktabr kuni qabul qilingan. O'zbek tili davlat tili bo'lib turkiy tillar oilasiga mansub tildir. Bu tilning kelib chiqishi rivojlanishi haqida keng miqosda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O'zbek tili o'zining fonetik, morfologik sintaktik xususiyatlariga ega bo'lib, asosan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va boshqa hududlarda so'zlashiladi. Shuningdek o'zbek tili hozirgi kunlarda O'rta Osiyo hududlarida keng tarqalgan. IX-X asrlarda O'rta Osiyo (butun Markaziy Osiyo) zamonaviy akademiyalarga o'xshash ilk ilmiy muassasa va jamiyatlar tashkil etila boshlagan Sharqdagi yirik ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. XI asrda Urganch Xorazm poytaxti, obod, yuksak madaniyatga ega shahar bo'lgan. Xorazmshoh Abul Abbas ibn Ma'mun madaniyat va ilmga qiziquvchan hukmdor bo'lgani uchun olimlar, shoirlar, musiqachilar, xattotlar, arxitektor va rassomlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. Urganchdagi Xorazmshohlar saroyida tibbiyot xodimi Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), aniq fanlar



vakili Abu Rayhon Beruniy, tarixchi ibn Miskavayx, matematik Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saxl Masixiy, tabib ibn Xammar va boshqa Sharq mutafakkirlari, qomusiy olimlar xizmat qilishgan. Musulmon Sharqdagi birinchi akademiya – “Baytul Hikmat”ni yer meridian uzunligi darajasini o‘lchashda qatnashgan mashhur matematik al-Xorazmiy (783-850) boshqargan. Astrolyabiya (usturlob) qurish haqidagi asar, “Kitob aljabr val muqobala”, dunyodagi ilk “Astronomik jadval”lardan biri hamda qator ilmiy risolalar – “Hind hisobi haqida risola”, “Quyosh soatlari haqida risola”, “Musiqqa haqida risola” va boshqa ilmiy ishlar uning qalamiga mansub. Al-Xorazmiy birinchi bo‘lib qator algebraik tenglamalarni yechdi, birinchi bo‘lib sonlar qatoriga yangi “nol” sonini kiritdi, bu sonlar nazariyasini kengaytirdi va manfiy sonlarga o‘tish imkonini berdi. Shu muvaffaqiyatlari uchun matematikaning yangi bo‘limi al-Xorazmiy sharafiga “algebra” deb atalgan. Al-Xorazmiyning mashhur “Kitob al-jabr van-muqobala” (Tiklash va qarama-qarshi qo‘yish haqidagi kitobi) da algebra ilk bor matematikaning mustaqil sohasi sifatida qaraladi. Zamonaviy kibernetikaning asosiy tushunchasi, uning zaruriy asoslaridan biri “algoritm” etimologik jihatdan al-Xorazmiyning ismi bilan bog‘liq. Urganchda o‘ziga xos akademiya – “Bilimdonlar uyi” tashkil qilingan edi, unda astronomiya, falsafa, matematika, tibbiyot bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Lekin bu holat Urganchda 1017-yilda Mahmud G‘aznaviy Xorazmni istilo qilgunicha saqlanib qoldi. Shunday qilib Sharqda, xususan, O‘rta Osiyoda, ilmiy faoliyatni akademiya shaklida tashkil qilish an’anaga aylandi va Urganchdagi akademiya o‘xshash muassasalar keyingi asrlarda ham yaratilgan (tuzilgan). Samarqandda akademiya Mirzo Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek tomonidan XV asrda tashkil etilgan. Akademiya qoshida observatoriya, o‘sha davrning boy kutubxonasi va oliy o‘quv yurti – madrasa bo‘lgan. Madrasada diniy fanlar bilan bir qatorda matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, geografiya va boshqa dunyoviy ilmlar o‘qitilgan. Ulug‘bekning akademiyasida mashhur olimlar – Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy va Ali Qushchi dars bergan, o‘tkaziladigan tadqiqot sohalari ham ularning yo‘nalishlariga mos bo‘lgan. Samarqanddagi Ulug‘bek



akademiya matematika, astronomiya va geografiya fanlarining yuksalishiga salmoqli hissa qo‘shdi. Hozirgi kunda O‘zbekiston hududidagi viloyatlarning ko‘pchiligida sheva so‘zlar mavjud ya’ni insonlar o‘ziga qulay tarzda so‘zlarni talaffuz qilishi yoki qadimgi og‘uz va qarluq lahjalaridan kelib chiqqan eskicha so‘zlar orqali so‘zlashadilar. Masalan oddiy Ona so‘zi turli viloyatlarda turlicha aytiladi misol uchun: Xorazmda: Opa, Buxoroda: Nana, Jizzax, Surxandaryo Navoiy, Samarqand viloyatlarida: Aya kabi talqinda yuritiladi.

Bu albatta biroz noqulayliklar tug‘dirishi mumkin. Sheva so‘zlarni ko‘pincha eski yoki turli xil tillardan o‘zlashgan yoki oldin kirib kelib bugungi kunda odat tusiga kirgan so‘zlar desak bo‘ladi. Bugungi kunda Respublikamizda juda ko‘plab professorlar o‘zbek tilida ko‘plab ilmiy ishlar yoqlamoqda. Albatta bu davlatimiz uchun shuningdek yosh avlodlarimiz uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan: O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasida dotsenti, o‘z talabalarining sevimli ustozisi Qo‘ldosh Pardayev doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Shuningdek Eshmatova Yulduz Boymaxmatovaning 10.00.02-O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shubhasiz shunday katta yutuqlarimiz o‘zbek tilining kelajagi hamda ahamiyatini yanada boy va yetuklik cho‘qqilariga yetaklaydi. VIII-IX asrlar oralig‘ida o‘zbeklarning ajdodlari qadimgi uyg‘ur, xorazm va O‘rxun-Enasoy yozuvlarini qo‘llagan. O‘rta Osiyo arablar tomonidan egallanganidan so‘ng, arab alifbosi iste‘molga kiradi. 1928—1940-yillarda lotin alifbosi amalda bo‘lib, 1940-yilda SSSRdagi boshqa ko‘plab tillar singari o‘zbek tili ham kirill yozuviga o‘tkazildi. O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan keyin, 1993-yilda lotin alifbosiga qaytildi. 1929-yilgacha O‘zbekistonda arab alifbosidan foydalanib kelishgan. Keyinchalik davlatimiz mustaqillik yillarida ya’ni 1993-yilda lotin alifbosiga qaytildi. Eski o‘zbek yozuvi arab alifbosiga asoslangan edi. Biroq o‘sha davrlarda o‘zbek alifbosida aniq imlo qoidalar bo‘lmagan va turli nashrlar har xil imlo qoidalardan foydalanib kelishgan. Qo‘qonlik



ma'rifatchi Ashurali Zohiriy o'zining 1916-yil nash etilgan "Imlo" darsligida shunday deydi: "Bizning hozirgi imlomizda qoidaga aslo rioya etilmog'anidan har kim o'zicha qanday yozmoqni xohlasa o'shanday yoza berg'onidan; bu adabiyotimizning kengayishiga sad bo'lib, oshlarimizning qiynalishidan boshqa ajnabiy millatlarning qoshida tilimizning masxara qildirib, madaniy tillarga baho qo'yg'onda, qiymati hech bo'lishiga sabab bo'ldik.

Shunga binoan bul "Imlo" risolasini yozdim. Eng zarur qoidalarni darj etdim... "hoye rasmiyani imlomizg'a kirg'izdim." Shunday qilib 1919-yil Toshkentda Fitrat boshchiligida til-imlo va adabiyot masalalaei bilan shug'ullantiruvchi to'garak-seminar- "Chig'atoy gurungi" jamiyati tashkil topadi. Milliy ishlar komissariati tarafidan tasdiq etilib ishka kirishkan. Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondagi eski va yangi turkey asarlarni jam qilib, turkiy tilini ixyo qiluv haqinda materiyol hozirlamok, lug'at va adabiyot dunyosin boyitmoqdir". «Chig'atoy gurungi» jamiyati faoliyatida alifbo va imlo masalalari alohida o'rin tutadi. Shundan keyin O'zbek tili rivoji, madaniyati elib chiqish tarixini yanada tadbiq etish uchun qator islohotlar olib borildi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, har bir davlat o'zining tili va yetarlicha tarixiga ega. Shu qatorda O'zbek tilining o'rne alohida ahamiyat kasb etadi. Biz kattalar kelajak avlod uchun tilimiz adabiyotlarimiz haqida yetarlicha ma'lumotlar aytishimiz va o'zbek tilining ravnaqiga hissa qo'shishimiz darkor. Til bu millat kelajagi shunday ekan bu borada bor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent, 1995. 25-b.
2. Ashurali Zoxiriy. Imlo-Qozon: "Umid" tipo-lifografiyasi 1996- V 3
3. O'zME (2000-2005). Abduvahob Madvaliyev.
4. Alisher Navoiy nomidagi ToshDÖTAU Axborot-resurs markazi
5. H. Jamolxonov, Q. Sapayev. Imlo muammolari, -Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2007